



## Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-iyul)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 2 trln. 775,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 105,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (88,3 %) ni tashkil etdi.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 28,6 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 1,7 % ga pasayish kuzatildi.


Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda - 9,9 % ga hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 8,5 % ga o'sishi kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi**

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 127,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,6 % ini tashkil etdi.



**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

O'tgan yilning shu davriga nisbatan ko'mir qazib olish - 14,0 % ga hamda chaqiq tosh - 2,2 martaga, tabiiy qum - 1,5 martaga oshgan bo'lsa, neft qazib olish - 2,1 % ga, qattiq tuz (osh tuzidan tashqari) - 21,5 % ga, yodgorliklar, pardoqlash yoki qurilish ishlari uchun granit, qum-tosh va boshqa toshlar - 54,9 % ga pasaygan.




Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
<b>Ko'mir, ming t.</b>	121,6	138,6	17,0
<b>Neft, ming t.</b>	48,0	47,0	-1,0
<b>Qattiq tuz (osh tuzidan tashqari), ming t.</b>	18,4	14,4	-4,0
<b>Qum, ming t.</b>	23,1	35,1	12,0
<b>Chaqiq tosh, ming t.</b>	36,7	78,8	42,1



### Ishlab chiqaradigan sanoat


2020- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 trln. 449,1 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari-ning 88,3 % ini tashkil etdi.




### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2019- yil yanvar-iyul oylarida - 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,4 % ni (0,5 %), o'rta-quyi texnologiyali - 24,8 % ni (26,4 %) va quyi texnologiyalisi - 62,9 % ni (58,5 %) tashkil etdi.

**2019- yil  
yanvar-iyul, % da**



**2020- yil  
yanvar-iyul, % da**



 yuqori texnologiyali

 o'rtqa-quyi texnologiyali


 o'rtqa-yuqori texnologiyali

 quyi texnologiyali

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 5,6 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 108,7 %), yog'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari va mebel ishlab chiqarish - 2,8 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 101,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 42,5 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 134,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 25,6 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 95,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 0,7 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 135,9 %) ni tashkil etdi.



**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**



2020- yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 14,0 ming tonna paxta tolasi (2019-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 2483,2 %), 19,4 ming tonna chakana savdo uchun qadoqlanmagan yigirilgan ip (111,9 %), 81,8 ming tonna un (125,8 %), 98,7 ming tonna portlandsement (0,0 %), 344,6 tonna sut (91,4 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.




**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Paxta tolasi, <i>ming t.</i>	0,6	14,0	13,4
Tozalangan paxta yog'i, <i>ming t.</i>	4,2	5,7	1,5
Un, <i>ming t.</i>	65,1	81,8	16,7
Portlandsement, <i>ming t.</i>	0,0	98,7	98,7
Dizel yoqilg'isi, <i>ming t.</i>	6,6	1,8	-4,8
Sut, <i>t.</i>	377,0	344,6	-32,4
Sariyog', <i>t.</i>	0,8	1,7	0,9



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash  
va havoni konditsiyalash**



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 158,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (5,7 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida gazzimon yoqilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi - 36,4 % ga oshganligi kuzatildi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni  
konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini  
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, <i>mln.kVt/s</i>	1,8	0,0	0,0
Issiqlik energiyasi, <i>ming gkal</i>	37,3	23,5	-13,8



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 39,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ini) tashkil etdi.



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalaridan tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	1,5	1,9	0,4
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	14,9	13,2	-1,7
Xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	3,8	5,8	2,0
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	7,3	11,6	4,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 52,0 % ga, boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar - 58,2 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 29,5 % ga oshganligi, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar - 11,6 % ga kamayganligi kuzatildi.



### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 trln. 111,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan - 102,4 % ni tashkil qilgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 40,1 % ni tashkil etdi.




2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yil yanvar-iyul oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi 50,7 % dan 46,2 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 2,6 % (2019- yil yanvar-iyul oylarida 4,3 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahriga to'g'ri kelib 23,0 % ni, shuningdek, Denov tumani 17,9 % ni hamda Sho'rchi tumani 14,4 % ni tashkil etdi.



Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (102,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Termiz shahri (108,3 %), Qumqo'rg'on (158,6 %), Oltinsoy (114,1 %), Sho'rchi (106,9 %), Qiziriq (104,4 %), Muzrabot (104,4 %), Uzun (103,8 %), Boysun (104,7 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1111,9</b>	<b>100,0</b>	<b>102,4</b>
<b>Termiz sh.</b>	255,4	23,0	108,3
tumanlar:			
<b>Angor</b>	31,9	2,9	100,8
<b>Bandixon</b>	1,2	0,1	99,9
<b>Boysun</b>	33,7	3,0	104,7
<b>Denov</b>	199,4	17,9	96,3
<b>Jarqo'rg'on</b>	81,6	7,3	93,4
<b>Qumqo'rg'on</b>	52,3	4,7	158,6
<b>Qiziriq</b>	23,0	2,1	104,4
<b>Muzrabot</b>	19,7	1,8	104,4
<b>Oltinsoy</b>	47,1	4,2	114,1
<b>Sariosiyo</b>	47,8	4,3	101,1
<b>Termiz</b>	71,8	6,5	86,2
<b>Uzun</b>	35,3	3,2	103,8
<b>Sherobod</b>	51,5	4,6	84,2
<b>Sho'rchi</b>	160,1	14,4	106,9



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar  
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 598,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 21,6 % ni tashkil etdi.



**Surxondaryo viloyati hududlari kesimida  
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	<b>2020- yil yanvar-iyul mlrd. soʻm</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>2775,0</b>	<b>105,5</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>566,0</b>	<b>108,5</b>
tumanlar:		
<b>Angor</b>	<b>65,2</b>	<b>109,0</b>
<b>Bandixon</b>	<b>1,3</b>	<b>104,9</b>
<b>Boysun</b>	<b>47,1</b>	<b>109,6</b>
<b>Denov</b>	<b>295,3</b>	<b>110,1</b>
<b>Jarqoʻrgʻon</b>	<b>502,9</b>	<b>101,8</b>
<b>Qumqoʻrgʻon</b>	<b>237,8</b>	<b>184,4</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>91,3</b>	<b>102,3</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>83,3</b>	<b>167,6</b>
<b>Oltinsoy</b>	<b>49,2</b>	<b>104,8</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>253,5</b>	<b>101,7</b>
<b>Termiz</b>	<b>110,5</b>	<b>102,3</b>
<b>Uzun</b>	<b>76,2</b>	<b>103,9</b>
<b>Sherobod</b>	<b>196,3</b>	<b>106,1</b>
<b>Shoʻrchi</b>	<b>199,1</b>	<b>106,8</b>




**Surxondaryo viloyati hududlar kesimida ishlab  
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari  
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining ko'payishiga, Qumqo'rg'on (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 184,4 %), Muzrabot (167,6 %), Denov (110,1 %), Boysun (109,6 %), Angor (109,0 %) tumanlari hamda Termiz shahrida (108,5 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada ko'payganligi bilan izohlashimiz mumkin.

**Sanoat ishlab chiqarish  
fizik hajmi indeksi, % da**




**Iste'mol mahsulotlari  
ishlab chiqarishda o'sish  
sur'ati, % da**



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Qumqo'rg'on (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 158,6 %), Oltinsoy (114,1 %), Sho'rchi (106,9 %), Boysun (104,7 %) tumanlarida hamda Termiz shahrida (108,3 %) sezilarli darajada oshdi.



**Surxondaryo viloyati jami sanoat  
mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Termiz shahri (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 20,4 %), Jarqo'rg'on (18,1 %), Denov (10,6 %), Sariosiyo (9,1 %), Qumqo'rg'on (8,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Bandixon (0,05 %), Boysun (1,7 %) hamda Oltinsoy (1,8 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Jarqo'rg'on (2 298,4 ming so'm), Termiz (1 427,9 ming so'm), Sariosiyo (1 206,3 ming so'm), Qumqo'rg'on (1 012,3 ming so'm) tumanlarida va Termiz shahri (3 130,7 ming so'm) o'rtacha Viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1 050,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 421,0 ming so'm bo'lgani holda, Termiz shahrida - 1 412,6 ming so'mni, Denov tumanida - 516,2 ming so'mni, Termiz tumanida - 927,8 ming so'mni, Sho'rchi tumanida - 764,8 ming so'mni tashkil etdi.



**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**  
(2020- yil yanvar-iyul oylarida, ming so'm)


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1050,7</b>	<b>421,0</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>3130,7</b>	<b>1412,6</b>
tumanlar:		
<b>Angor</b>	<b>491,1</b>	<b>240,2</b>
<b>Bandixon</b>	<b>16,8</b>	<b>16,6</b>
<b>Boysun</b>	<b>406,1</b>	<b>290,4</b>
<b>Denov</b>	<b>764,5</b>	<b>516,2</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>2298,4</b>	<b>373,1</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>1012,3</b>	<b>222,5</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>798,6</b>	<b>201,6</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>586,9</b>	<b>138,5</b>
<b>Oltinsoy</b>	<b>277,8</b>	<b>266,0</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>1206,3</b>	<b>227,5</b>
<b>Termiz</b>	<b>1427,9</b>	<b>927,8</b>
<b>Uzun</b>	<b>443,0</b>	<b>205,6</b>
<b>Sherobod</b>	<b>1011,0</b>	<b>264,9</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>951,0</b>	<b>764,8</b>



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi**

*(2020- yil yanvar-iyul oylarida, % da)*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 trln. 265,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 45,6 % ni tashkil etdi.



Актив  
Чтобы

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Oltinsoy, Bandixon va Uzun tumanlarida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 % dan), Boysun tumanida (95,5 %), Termiz tumanida (94,1 %), Angor tumanida (90,0 %) hamda Qiziriq (83,2 %) kuzatildi.


Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Sherobod (24,6 %), Shoʻrchi (27,9 %), Qumqoʻrgʻon (29,0 %), Jarqoʻrgʻon (31,2 %), Muzrabot (32,8 %) hamda Termiz shahri (39,2 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




**Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 3751 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 658 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 17,5 %) Termiz shahriga, 424 tasi (11,3 %) Denov tumaniga, 264 tasi (7,0 %) Qumqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda**



**Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda**




2020- yil yanvar-iyul oylarida viloyatda 1326 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 157 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 11,8 %) Denov tumanida, 150 tasi (11,3 %) Termiz shahrida, 120 tasi (9,0 %) Qumqo'rg'on tumanida, 119 tasi (9,0 %) Oltinsoy tumanida hamda 118 tasi (8,9 %) Sho'rchi tumanida tashkil etildi.




**Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonolari**  
(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra)

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonolari joylashgan hududlar 5 taligida Termiz shahri (658 ta), Denov (424 ta), Qumqo'rg'on (264 ta), Sho'rchi (255 ta) hamda Jarqo'rg'on (241 ta) tumanlari qayd etildi.

Viloyat miqyosida eng ko'p sanoat ishlab chiqarish korxonolari joylashgan shahar va tumanlar 5 taligi  
(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra)



Viloyat miqyosida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonolari joylashgan shahar va tumanlar 10 taligi  
(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra)



2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonolari joylashgan hududlar 5 taligiga esa Bandixon (37 ta), Qiziriq (174 ta), Muzrabot (182 ta), Oltinsoy (188 ta), Angor (194 ta) tumanlari qayd etildi.

**Sanoat statistikasi  
bo'limi**

Tel.: (76) 225-65-76